



TOG'AY MUROD ROMANLARIDA METAFORA

Kabuljonova Gulbaxor Komiljonovna,

Qo'qon universiteti Andijon filiali O'zbek va rus filologiyasi kafedrası

v.b. professori, filologiya fanlari nomzodi.

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v18iB.1673>

MAQOLA HAQIDA/O СТАТЬЕ

Qabul qilindi: 18-may 2026-yil

Tasdiqlandi: 21-may 2026-yil

Jurnal soni: 18-B

Maqola raqami: 15

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ

СЛОВА

metafora, metaforik ko'chim, lingvopoetika, idiostil, Tog'ay Murod, antropomorfik metafora, sinestetik metafora, gidromorfik metafora

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Maqolada Tog'ay Murod romanlaridagi metaforik ko'chimlar semantik va lingvopoetik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqot materiali sifatida "Otamdan qolgan dalalar" va "Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi" romanlaridan tanlangan misollar olindi. Maqolada metaforalarning antropomorfik, zoomorfik, fitomorfik, kosmomorfik va abiomorfik turlari, shuningdek, sinestetik hamda gidromorfik ko'rinishlari ajratilib, ularning obraz yaratish, ruhiy holatni kuchaytirish, ijtimoiy baho berish va muallif idiostilini namoyon etishdagi roli ochib beriladi. Tahlil shuni ko'rsatadiki, Tog'ay Murod metaforani tayyor bezak sifatida emas, balki voqelikni milliy tasavvur va individual nutq orqali qayta quruvchi poetik mexanizm sifatida ishlatadi. Ayniqsa, adib qo'llagan metaforalarda inson ruhiyati, milliy sha'n va ichki tug'yonni ifodalashda o'ziga xos okkazonal metaforalar yaratilganligi kuzatiladi. Maqola natijalari yozuvchi tilining obrazlilik tabiatini aniqroq ko'rsatish va badiiy matnning lingvopoetik talqinini chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, yozuvchi tilining obrazlilik tabiatini aniqroq ko'rsatish va badiiy matnning lingvopoetik talqinini chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari o'zbek badiiy matnlarida metaforik ko'chimlarning semantik-struktur xususiyatlarini aniqlash, muallifning individual uslubini tavsiflash hamda zamonaviy lingvopoetik tadqiqotlarni boyitish uchun nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda metaforalarning kontekstual faolligi hamda ularning badiiy-estetik ta'sir kuchi Tog'ay Murod ijodi misolida yoritilib, adibning metafora yaratish mahorati o'ziga xos poetik tafakkur mahsuli ekanligi asoslab beriladi.

ABOUT THE PAPER

Accepted: 18 may 2026

Approved: 21 may 2026

Volume: 18-B

Paper number: 15

KEYWORDS

metaphor, metaphorical shift, linguopoetics, idiostyle, Tog'ay Murod, anthropomorphic metaphor, synesthetic metaphor, hydromorphic metaphor

ANNOTATION

The article analyzes metaphorical shifts in the novels of Tog'ay Murod from semantic and linguopoetic perspectives. Examples selected from the novels "Fields Left by My Father" and "One Cannot Die in This World" are used as the research material. The study identifies anthropomorphic, zoomorphic, phytomorphic, cosmomorphic, and abiomorphic types of metaphors, as well as synesthetic and hydromorphic forms, and reveals their role in creating imagery, intensifying emotional states, providing social evaluation, and expressing the author's idiostyle. The analysis shows that Tog'ay Murod employs metaphor not as a ready-made ornament, but as a poetic mechanism that reconstructs reality through national perception and individual expression. In particular, it is observed that the writer creates distinctive occasional metaphors to convey human psychology, national dignity, and inner turmoil. The results of the study contribute to a clearer understanding of the figurative nature of the writer's language and to a deeper linguopoetic interpretation of literary texts. Furthermore, the study contributes to a clearer understanding of the figurative nature of the writer's language and deepens the linguopoetic interpretation of literary texts. The findings are of both theoretical and practical significance for identifying the semantic and structural features of metaphorical transfers in Uzbek literary texts, characterizing an author's individual style, and enriching contemporary linguopoetic research. The study also highlights the contextual activity of metaphors and their artistic and aesthetic impact through examples from Tog'ay Murod's works, demonstrating that the writer's mastery of metaphor creation is a product of his distinctive poetic thinking.

Kirish. Ma'lumki, jahon tilshunosligida tadqiqotchilar e'tiborini eng ko'p o'ziga jalb qilayotgan badiiy tasvir vositalaridan biri metaforadir. Tilning ifoda imkoniyatlarini boyituvchi bu hodisaga e'tiborning kuchayishi natijasida metaforologiya alohida soha sifatida keng tadqiq etilmoqda.

Badiiy matnning ichki quvvati ko'pincha narsani bevosita nomlashdan ko'ra uni qayta nomlash, yangi munosabatga kiritish, kutilmagan semantik yaqinlik orqali yoritishda namoyon bo'ladi. Shu ma'noda metafora tilning oddiy bezak vositasi emas, u muallifning borliqni qanday ko'rishi, narsalar orasidagi yashirin bog'lanishlarni qanday his etishi va shu bog'lanishlarni so'zga qanday ko'chirishini ochib beradigan badiiy tasvir vositadir.

Adabiyotlar tahlili. Metafora masalasi jahon va o'zbek tilshunosligida keng tadqiq etilgan lingvistik hodisalardan biridir. Dastlab metafora asosan uslubiy vosita sifatida talqin etilgan bo'lsa, keyinchalik kognitiv lingvistika, lingvopoetika va lingvokulturologiya yo'nalishlarida ham faol o'rganila boshlandi. Metaforaning til va tafakkur o'rtasidagi bog'liqligi, insonning borliqni idrok etishidagi o'zmi ko'plab tadqiqotchilar tomonidan tahlil qilingan.

O'zbek tilshunosligida metaforaning semantik tabiati, tasnifi va badiiy matndagi funksiyasiga oid qator ilmiy ishlarda muhim nazariy qarashlar ilgari surilgan.

Jahon tilshunosligida metafora masalasiga bo'lgan qiziqishning kuchayishi natijasida u uslubshunoslik doirasidan chiqib, kognitiv lingvistika, lingvopoetika va lingvokulturologiya kabi yo'nalishlarda ham

faol o'rganila boshlandi. O'zbek tilshunosligida ham metaforaning lisoviy tabiati, tasnifi, semantik xususiyatlari va badiiy matndagi funksiyasiga doir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Tilda metaforaning ko'plab ko'rinishlari mavjud. Uning antropomorfik, zoomorfik, fitomorfik, kosmomorfik hamda abiomorfik kabi turlari farqlanadi. Antropotsentrik metafora – bevosita insonning ichki va tashqi sifatleri bilan bog'liq bo'lgan til hodisasi. U qanchalik rang-barang bo'lmasin, markazida inson turadi va o'zining serqirraligi hamda murakkab tabiati bilan xarakterlanadi. Antropotsentrik metaforani dastlab "inson - borliq" munosabati asosida tasniflash maqsadga muvofiq. Bunda metaforaga insonning qaysi jihati asos bo'lganligi nazarda tutiladi.

Borliq qanchalik cheksiz va rang-barang bo'lsa, undan kelib chiqqan holda, ularni ifodalovchi leksemalarning metaforik ma'nolari ham shunchalik xilma-xildir. Antropotsentrik metafora bevosita insonning ichki va tashqi sifatleri bilan bog'liq bo'lgan metaforalardir. Bu metaforalar qanchalik rang-barang bo'lmasin, uning markazida inson turadi. Xususan, antropotsentrik metaforaning insonning ichki va tashqi sifatleri bilan bog'liqligi, uning markazida inson turishi alohida ta'kidlangan [3.318-319]. Shuningdek, tilda metaforalarni antropomorfik, zoomorfik, fitomorfik, kosmomorfik va abiomorfik turlarga ajratish tajribasi ham mavjud [7.85-88]. Keyingi izlanishlarda esa teomorfik metafora alohida guruh sifatida ko'rsatilib, farishta, shayton, jin kabi birliklarning insonga nisbatan qo'llanishi ham metaforik ma'no hosil qilishi qayd etilgan [1.45].

Tog'ay Murod nasri badiiy tilining zichligi, xalqona nutqning ichki musiqasi va kutilmagan obrazlari bilan ajralib turadi. Biroq yozuvchining metafora yaratish usuli ko'pincha umumiy baho darajasida tilga olinadi, ayrim ko'chimlarning matndagi funksional yuki esa yetarli darajada tizimli ochib berilmaydi. Mazkur maqolaning maqsadi – Tog'ay Murod romanlarida uchraydigan metaforik ko'chimlarni semantik guruhlar bo'yicha tavsiflash, ularning badiiy-funksional vazifasini aniqlash va muallif idiositilidagi o'rnini ko'rsatishdir. Tadqiqotning obyekti sifatida yozuvchining romanlaridagi metaforik birliklar, predmeti sifatida esa ularning semantik xususiyatlari, kontekstual faolligi va obraz yaratishdagi ishtiroki olindi.

Maqolaning ilmiy ahamiyati shundaki, unda metaforalar faqat sanab o'tilmaydi, balki ularning badiiy matn ichidagi harakati kuzatiladi. Ko'chimning qaysi manbadan kelib chiqqani bilan birga, u aynan qaysi ruhiy, ijtimoiy yoki baholovchi xususiyatni hosil qilayotgani ham izohlanadi. Shu tariqa metafora shakliy hodisa emas, balki yozuvchi tafakkurining faol usuli sifatida ko'riladi.

Metodologiya. Tadqiqot materiali sifatida Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" hamda "Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi"

romanlaridan olingan metaforik birliklar tanlab olindi. Tadqiqotda metaforalarning semantik tabiati, kontekstual faolligi hamda lingvopoetik funksiyasi tahlil qilindi.

Tahlil jarayonida tavsifiy, kontekstual, komponent, qiyosiy va lingvopoetik metodlardan foydalanildi. Metaforalarni tasniflashda A.Xo'jamqulov tomonidan tavsiya etilgan semantik model tayanch asos sifatida olindi. [7.87].

Shu bilan birga, matn xususiyatidan kelib chiqib, sinestetik va gidromorfik metaforalar ham alohida kuzatuv birligi sifatida ajratildi. Sinestetik metaforani sharhlashda badiiy matnning lingvopoetik tahliliga oid yondashuvlardan ham foydalanildi. [2.49].

Mazkur ishda metaforaning faqat turi emas, uning matn ichidagi harakati muhim deb qaraldi. Shu sababli misollar izohlanayotganda uch jihatga e'tibor berildi: birinchidan, ko'chimning qaysi semantik manbadan kelib chiqqani; ikkinchidan, u qaysi ruhiy, ijtimoiy yoki baholovchi ma'noni kuchaytirayotgani; uchinchidan, muallif nutqida u tayyor an'anaviy birlikmi yoki kontekstda qayta tug'ilgan individual metaforami. Bunday yondashuv metaforaning nafaqat til birligi, balki badiiy tafakkur usuli ekanini aniqroq ko'rsatadi.

1-jadval. Tog'ay Murod romanlarida qo'llangan metafora turlari va ularning funksional yo'nalishi

Metafora turi	Semantik manba	Matndan xarakterli ko'rinish	Asosiy funksiyasi
Antropomorfik	Inson tana a'zolari va qiyofasi	dala kindigi, ariq labi, masjid-madrasa qoshi	makonni jonlantirish, predmetni insoniyashtirish
Zoomorfik	Hayvon va uning belgisi	poda, cho'chqa, itdum	tahqirlash, ijtimoiy-siyosiy baho
Fitomorfik	Daraxt, o'simlik, don nomlari	chinor, arpa un, makkajo'xori	xotira, kinoya, madaniy assotsiatsiya
Kosmomorfik	Falak va tabiat hodisalari	quyosh kulib boqdi, g'am seli	ruhiy holatni kengaytirish, obrazni kattalashtirish
Abiomorfik	Jonsiz narsa va modda	ignadek sanchildi, vaqt oltin	mavhum tushunchani predmetlashtirish
Sinestetik / gidromorfik	Sezgi kesishuvi, suv va oqim tasavvuri	achchiq non, ko'ngil daryosi toshdi	kechinmani sezilarli va miqdorli qilish

Natijalar. Tahlil natijalari Tog'ay Murod romanlarida metaforik ko'chimlarning rang-barang semantik manbalarga ega ekanligini ko'rsatdi. Asarlarda antropomorfik, zoomorfik, fitomorfik, kosmomorfik, abiomorfik, sinestetik hamda gidromorfik metaforalar faol qo'llanganligi aniqlandi.

Antropomorfik metaforalar orqali makon va predmetlarning insoniyashtirilishi kuzatildi. "Dala kindigi", "ariq labi", "masjid-madrasa qoshi" kabi birliklarda predmet va makon inson tanasi qismlari bilan bog'lanib, tasvirning jonlanishiga xizmat qilgan.

Zoomorfik metaforalar ko'proq salbiy baholash va ijtimoiy munosabatni ifodalashda qo'llangan. "Cho'chqa", "poda", "itdum" kabi birliklar insonni tahqirlash, ijtimoiy bosim va mafkuraviy munosabatni ochib beruvchi vosita sifatida namoyon bo'lgan.

Fitomorfik metaforalarda daraxt va o'simlik nomlari tarixiy xotira, milliylik va madaniy assotsiatsiyalarni ifodalagan. "Tili bo'lsa, mana shu chinor aytsin" misolida chinor tarix va xotira timsoliga aylangan.

Kosmomorfik metaforalarda tabiat hodisalari insoniy kechinmalar bilan uyg'unlashgan. "G'am seli", "quvonch yomg'iri", "quyosh kulib boqdi" kabi birliklar ruhiy holatni kuchaytirishga xizmat qilgan.

Abiomorfik metaforalarda jonsiz predmetlar orqali ruhiy va mavhum tushunchalar predmetlashtirilgan. "So'zlari yurakka ignadek sanchildi", "vaqt oltin" kabi metaforalarda hissiy ta'sir kuchaygan.

Sinestetik va gidromorfik metaforalarda esa sezgilararo kesishuv hamda suv obrazlari orqali ichki kechinmalar yanada ta'sirchan ifodalangan.

Jadvaldan ko'rinadiki, metaforik qatlam bir xil semantik manbadan tuzilmaydi. Aksincha, yozuvchi turli manbalardan olingan ko'chimlar yordamida makon, tarix, ruhiy holat va ijtimoiy bahoni bir-biriga bog'lab yuboradi. Shu sababli tahlilda alohida misollarni faqat tasniflash bilan cheklanmay, ularning matndagi ishlash usuliga ham e'tibor qaratildi.

Inson va baho markaziga qirg'ingan metaforalar

Tahlil qilingan materialda antropomorfik metaforalar eng faol qatlamlardan biri sifatida ko'zga tashlanadi. "Dala kindigida oyoq iladi", "ariq labi", "masjid-madrasa qoshi" kabi birikmalarda odam tanasi qismlariga oid leksemalar makon, narsa va obyektlarga ko'chiriladi. Bu yerda ko'chim faqat tashqi o'xshashlik asosida emas, u tasvirlanayotgan makonni tirik organizmga yaqinlashtiradi, natijada manzara jonlanadi va voqelik statik fon bo'lib qolmaydi. Ayniqsa "dala kindigi" birikmasida dala markazining hayot manbai bilan bog'lanishi seziladi. Shu jihatdan bu misol oddiy nomlash emas, predmetning ichki markazini topishga undovchi okkazonal metafora sifatida qimmatlidir.

Antropomorfik qatlamning yana bir muhim tomoni shundaki, u Tog'ay Murodning makonni ham insoniy tajriba orqali ko'rishini namoyon etadi. *Dala, ariq, masjid-madrasa* kabi obyektlar muallif tasvirida jonsiz emas, ular ruhiy va tarixiy yukni ko'tara oladigan "tanaga" aylanadi. Natijada, makon voqealar sodir bo'ladigan joy bo'lib qolmaydi, balki taqdimni yutib yuboradigan yoki uni saqlab qoladigan kuch sifatida ko'rina boshlaydi.

Zoomorfik metaforalar esa ko'proq baholovchi va ijtimoiy-siyosiy yuk bilan namoyon bo'ladi. O'zbek tilida hayvon nomlari bilan yasalgan ko'chimlar ko'pincha salbiy emotsional fonda ishlatilishi, ijobiy holat esa asosan erkalash shakllari orqali yuzaga chiqishi qayd etilgan [6.48]. Tog'ay Murod romanlarida ham "cho'chqa", "itdum", "poda" singari birliklar insonni tahqirlash, milliy kamsitish va zo'ravon ideologik munosabatni ochib berishga xizmat qilgan. Bu kabi misollarda metafora o'xshashlikning badiiy ifodasi emas, hukm va munosabat aks ettiruvchi vositaga aylangan. Shuning uchun zoomorfik ko'chimlar obraz yaratish bilan birga, tarixiy shart-sharoitlar hamda ijtimoiy munosabatlar tizimidagi adolatsizlikni ham ifodalovchi tasviriy vosita rolini bajargan.

"Bular poda" degan ifoda ayniqsa diqqatga sazovor. Unda odam ijtimoiy subyekt emas, boshqariladigan omma sifatida ko'riladi. Birgina shu ko'chim orqali zo'ravon siyosiy qarash, ma'naviy kamsitish va boshqarish istagi bir nuqtada jamlanadi. Demak, zoomorfik metaforalar yozuvchi matnida xarakter yaratishdan tashqari, mustamlakachilik ruhiyatining nutqiy mexanizmini ham ochib berishga qaratilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etgan. Aynan muallif asarda ko'zda tutgan mazmun mohiyat ham shunga ishora qiladi.

Fitomorfik va kosmomorfik ko'chimlar

Fitomorfik metaforalarda baho boshqa yo'sinda ishlaydi. O'simlik va daraxt nomlari ko'pincha milliy tasavvur, barqarorlik, ildiz, hosildorlik va xotira bilan aloqador semantik mavdonni tashkil etadi. Fitonimlarning metaforik imkoniyatlari o'zbek tilshunosligida alohida ko'rib chiqilgan [4.105-106]. Gul leksemasining poetik funksiyasi, uning rang va holatga ko'ra ramziy ma'no hosil qilishi ham qayd etilgan [8.107]. Tog'ay Murod matnida "Tili bo'lsa, mana shu chinor aytsin" misolida chinor guvoh, xotira va tarix timsoli sifatida gavdalantirilgan. Bu yerda jonsiz narsaga nisbatan metaforik qo'llash oddiy jonlantirishdan kengroq ma'no kasb etadi: chinor insondan uzoq yashaydigan xotira egasi sifatida talqin qilinadi.

"Xurushchev – arpa un, Xurushchev – makkajo'xori" tarzidagi ko'chimlar tarixiy shaxsni o'simlik-don obrazlari orqali kinoyaviy baholashga xizmat qiladi. Bu yerda metafora hajviy rang oladi, ammo

uning fonida tarixiy tajriba va xalq xotirasi sezilib turadi. Demak, fitomorfik qatlam Tog'ay Murodda nafaqat nafis poetik detal, balki madaniy xotirani ifodalovchi semantik vosita sifatida ham tasvirlaydi.

Kosmomorfik metaforalar yozuvchi nasrida yorug'lik, falak va tabiiy hodisalar bilan bog'liq tasvirlarni faollashtiradi. "Quyosh kulib boqdi", "quvonch yomg'iri", "g'am seli" singari metaforik birliklar tabiat hodisalarini insoniy kechinmalar bilan uyg'unlashtirishga, ya'ni hissiy holatlarni bo'rtirishga qaratilgan. Bunday misollarda ko'chim ikki tomonlama xarakter kasb etadi: bir tomondan, tabiat insonlashadi; ikkinchi tomondan, inson holati kosmik miqyosdagi kuch sifatida kuchaytiriladi. Natijada quvonch yoki g'am individual hissiyot bo'lib qolmay, butun borliqni qamrab oladigan ruhiy kuchga aylanadi.

Ayniqsa "g'am seli" birikmasi ifoda zichligi bilan ajralib turadi. "G'am"ning o'zi mavhum ruhiy holat bo'lsa, "sel" unga birdan kuchli ruhiy holatni aks ettiradi. Shu tariqa metafora ichki kechinmani tasvirlash bilan kifoyalangan, uning bosimini, odamni o'z oqimiga tortib ketish xususiyatini ham his qilish imkonini beradi. Tog'ay Murodning kuchi aynan shunda: u hissiyotning nomini aytib qo'ymaydi, balki uni o'quvchi ko'z oldida harakatga keltiradi.

Abiomorfik, sinestetik va gidromorfik metaforalar

Abiomorfik metaforalar Tog'ay Murod romanlarida sermahsul qatlamni tashkil etadi. Tosh, temir, igna, oltin, o't, eshik, shamol kabi jonsiz predmet va hodisalar ko'chma ma'noda faol ishlatiladi. "So'zlari yurakka ignadek sanchildi" misolida og'riqning jismoniy sezimi ruhiy jarohatni aniqroq his qildiradi; "vaqt oltin" birikmasida esa mavhum tushuncha moddiy qimmat bilan o'lchanadi. "Uning so'zlari tosh kabi og'ir edi", "ko'zlarida g'azab o'ti yonardi" kabi metaforik ifodalarda ham his va baho predmetlashadi, shu orqali ularning intensivligi oshadi.

Yozuvchining ijtimoiy-badiiy bahosi ayniqsa "adabiy yelvizaklar", "adabiyot eshigi", "oshkoralik shamoli", "demokratiya shamoli" singari birikmalarda yaqqol ko'rinadi. Bu yerda metafora narsa nomini ko'chirish bilangina cheklanmaydi; u adabiy muhit, tarixiy burilish va mafkuraviy siljishni baholovchi semantik maydonga aylanadi. Masalan, "adabiy yelvizaklar" birikmasi bilan yozuvchi muvaqqat shovqin ko'targan, lekin ildizi va salmog'i bo'lmagan hodisalarini nazarda tutadi. "Adabiyot eshigi" esa estetik mezon, ichkariga kirish huquqi va ijodiy mas'uliyatni metafora orqali yaxlit tarzda ifodalashga erishgan.

Sinestetik metaforalarda sezgi sohalari o'zaro kesishadi. Bunday holatda bir sezgi organi bilan idrok etiladigan xususiyat boshqa sezgi doirasiga ko'chiriladi [2]. "Kun yonadi", "saron sap-sariq tovlanadi", "achchiq non", "qon rang – jallod rang" kabi misollarda ko'rish, ta'm, harorat va hissiy baho bir-biriga ulanadi. Tog'ay Murod bu usul orqali holatning nomini emas, uning sezilishini idrok qilishga e'tibor qaratadi. O'quvchi voqelikni mazmun sifatida emas, tan va ruhda aks etayotgan bosim sifatida qabul qiladi.

"Hayot uning uchun achchiq non edi" birikmasi buning yorqin misolidir. Bu yerda hayot umumiy falsafiy kategoriya bo'lib qolmaydi; u yutishga majbur bo'linadigan, lekin totli emas, achchiq ta'm beradigan kundalik zaruratga aylanadi. Shuning uchun sinestetik metafora yozuvchi matnda bezakdan ko'ra ko'proq tajribani moddiylashtirish usuli sifatida ko'rinadi. Unda ruhiy kechinma bir vaqtning o'zida ko'rinadi, eshitiladi, seziladi va deyarli totib ko'riladi.

Gidromorfik metaforalar ham muallif romanlarida o'ziga xos tarzda ifodalanganligini alohida qayd etish mumkin. Masalan, "Ko'ngil daryosi toshdi", "g'am-anduh botqog'iga botdi" kabi metaforik misollarda daryo, botqoqlik obrazlari ichki kechinmaning miqdori va og'irligini ifodalab kelgan. Bunday ko'chimlarda hissiyotning o'lchab bo'lmaydigan tabiatiga shakl beriladi: g'am ko'rinmaydi, lekin botqoqqa o'xshatilganda undan chiqish qanchalik mushkul ekani birdan ravshanlashadi. Ko'ngilning daryoga qiyoslanishi esa tuyg'uning sig'imi, toshqini va jilovdan chiqishini bir paytning o'zida inson xotirasida gavdalandirib beradi.

Muhokama. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Tog'ay Murod metaforani oddiy poetik bezak sifatida emas, balki voqelikni qayta talqin qiluvchi badiiy tafakkur vositasi sifatida qo'llaydi. Yozuvchi metaforalari orqali

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ibragimov X. O'zbek tilida teomorfik metaforalar va ularning badiiy matndagi o'rni. "Davlat tili taraqqiyoti: muammolar va yechimlar" mavzusidagi respublika ikkinchi ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent, 2022.
2. Йўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик тахлили асослари. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Фан, 2006.
3. Насруллаева Г. Антропоцентрик метафоранинг лисоний, когнитив ва лингвомаданий аспекти. Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Фарғона, 2019.
4. Пазлтидинова Н. Метафорик фитонимларнинг лисоний хусусиятлари. / Нутк маданияти ва ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари. Республика илмий-амалий анжуман материаллари. – Андижон, 2017.

inson ruhiyati, tarixiy xotira, milliy sha'n va ijtimoiy munosabatlar tizimini chuqur ifodalashga erishadi.

Asarlarda qo'llangan metaforik birliklarning muhim jihati shundaki, ular ko'pincha xalqona tafakkur bilan individual muallif uslubining uyg'unlashuvi asosida shakllangan. Natijada an'anaviy metaforalar bilan bir qatorda okkazonal metaforalar ham yuzaga kelgan.

Ayniqsa, "g'am seli", "adabiy yelvizaklar", "ko'ngil daryosi toshdi" kabi birliklar yozuvchining individual poetik tafakkurini namoyon qiladi. Bunday metaforalar nafaqat tasviriylikni kuchaytiradi, balki o'quvchining hissiy idrokiga ham faol ta'sir ko'rsatadi.

Antropomorfik metaforalarda makon va predmet inson tanasi bilan yaqinlashtirilishi tasvimi jonlantiradi. Zoomorfik qatlam esa ijtimoiy hukm va tarixiy ijtimoiy munosabatni, fitomorfik va kosmomorfik ko'chimlar esa, muallif tafakkuridagi kenglikni, tabiat bilan ichki ruhiyat o'rtasidagi uzviy aloqani ko'rsatishga yordam beradi. Abiomorfik metaforalar esa, vaqt, adabiyot, siyosiy muhit, ozodlik singari mavhum tushunchalarni ifodalashda muhim ahamiyat kasb etgan.

Yana shuni alohida qayd etish mumkinki, yozuvchi ko'pincha lug'atda tayyor turgan ko'chim bilan kifoyalangan. U an'anaviy ma'no zaminidan foydalanib, matn ichida yangi semantik taranglik hosil qiladi. Masalan, "quvonch yomg'iri" va "g'am seli" birikmalari xalqona tasavvurga yaqin turadi, biroq kontekstda ular inson umrining notekis ritmini, quvonch va iztirobning muqarrar almashinuvini ifodalovchi individual natijahat hodosiga aylanadi. Xuddi shuningdek, "adabiy yelvizaklar" metaforasi muallifning estetik mezoni va tanqidiy pozitsiyasini ham ochib berishga xizmat qilgan.

Shu ma'noda, Tog'ay Murod romanlarida qo'llangan metaforik ma'no ikki muhim jihatga ega ekanligi bilan xarakterlanadi. Birinchidan, muallif metaforik ma'no ifodasida xalq tili leksik boyliklaridan foydalanishda an'anaviy metaforalardan ham foydalangan bo'lsa, ikkinchidan, esa muallifning indiolektidan kelib chiqqan holda, kutilmagan, noodiy va okkazonal metaforalar ham uchraydi. Ana shu ikki jihat muallifni matnda o'ziga xos idiositilni yuzaga keltiruvchi asosiy omillar sanaladi. Metafora bu kabi qo'llashda oddiy voqea haqida xabar berish uchun emas, balki borliqning kognitiv idrok etilishini inson tafakkurida idrok etilishini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bois yozuvchining metaforik ma'no ifodalashdagi mahoratini, o'ziga xos individual uslubibibi o'rganish uning badiiy tafakkurini, ruhiy olamini tushunishda asosiy kalitlardan biri hisoblanadi.

Yana bir jihat e'tiborga loyiq: yozuvchi metaforani ko'pincha personaj va muallif nutqi oraliqida harakatlantiradi. Ayrim ko'chimlar to'g'ridan to'g'ri baholovchi tus olsa, ayrimlari manzara tasviri ichida asta ochiladi. Bu esa metaforaning funksiyasini bir yoqlama qilmaydi. U ba'zan kinoya, ba'zan rahm, ba'zan g'azab, ba'zan esa tarixiy og'riqni ifodalab keladi. Demak, bir xil semantik manbadan kelgan ko'chimlar ham kontekstga qarab turlicha estetik vazifa bajaradi.

Xulosa. Tog'ay Murod romanlaridagi metaforik ko'chimlar rang-barang semantik manbalardan oziqlanadi va ular orasida antropomorfik, zoomorfik, fitomorfik, kosmomorfik hamda abiomorfik birliklar izchil kuzatiladi. Material tahlili sinestetik va gidromorfik ko'chimlarni ham yozuvchi uslubining faol unsurlari sifatida ko'rish mumkinligini ko'rsatadi. Ushbu metaforalar orqali yozuvchi inson ruhiyati, tarixiy xotira, milliy sha'n, ijtimoiy kamsitish, ozodlik, ichki tug'yon va baholovchi munosabatini zich va ta'sirchan shaklda ifodalaydi.

Eng muhim jihat shundaki, romanlardagi metafora ko'pincha nominativ vazifadan chiqib, talqin qiluvchi vositaga aylanadi. U o'quvchiga tayyor xulosa bermaydi, aksincha, his, baho va manzarani bir-biriga bog'lab, ma'noni ichkaridan ochadi. Shu sababli Tog'ay Murod nasrida metaforik ko'chimlarni o'rganish faqat uslubiy masala emas, balki muallif dunyoqarashi va idiositilni anglashning muhim yo'nalishidir. Keyingi tadqiqotlarda metaforalarning konseptual modeli, ularning personaj nutqi bilan aloqasi va boshqa trop turlari bilan o'zaro munosabatini maxsus o'rganish galdagi muhim muammolardan sanaladi.

5. Фуломова Ш. Тоҳир Малик асарларидаги антропоцентрик метафоралар таснифига доир. / Lison ilmining chin yalovbardori. Prof. H.G'. Ne'matov tavalludining 75 yilligiga bag'ishlangan ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent, 2017.
6. Ўринов Б. Ҳайвон номлари билан ифодаланган метафоралар ҳақида. / Айюб Ғуломов ва ўзбек тилшунослиги масалалари (илмий мақолалар тўплами). – Тошкент, 2012.
7. Хо'jamqulov A. O'zbek tilida metaforaning tasniflanishiga doir. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 20 yilligiga bag'ishlab chiqarilgan ilmiy maqolalar to'plami. Lingvist. 2-kitob. – T.: Akademnashr, 2011.
8. Хўжамуронова О. Шеърятда гул лексемасининг лингвопоэтик хусусиятлари. // ЎТА, 2022, № 2.